



## BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARI SAMARADORLIGIDA “TEZKOR SAVOLLAR”

**Qarshiyeva Go'zal Alimardonovna**  
*Qashqadaryo viloyati PMM Maktabgacha,  
boshlang'ich va maxsus fan kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili fani boshlang'ich ta'lim standarti belgilab bergen vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslari samaradorligida “Tezkor savollar” didaktik o'yinni qo'llashga oid ma'lumotlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari jarayoni, ta'lim jarayonida qo'llanadigan o'yinlar, o'yinlar maqsadi, o'yin yakuni, o'yin sharhi.*

Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiyl xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalari chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar.

Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzlusiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi.

Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishimiz ana shu muammolarga bag'ishlanadi. Hamda boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlarni qo'llash usullari keng yoritiladi. Ta'lim jarayoni, uni rivojlantirish va o'zgartirish o'qituvchi va sinf o'quvchilarining o'zaro ochiq muloqoti va ishonchi muhitida samarali bo'ladi. Ta'lim jarayonida qo'llanadigan o'yinlar qisqa vaqtga mo'ljallangan bo`lib, guruh bo`lib mashq qilishga odatlantiradi, oldindan tayyorgarlikni talab etmaydi. O'yinlar vaqtida kichik



guruqlar faolligi ortadi, ta'lim ishtirokchilarining diqqati ishga (ta'lim jarayoniga) to'liq jalg etiladi.

O`yinlar vositasida o`quvchilarga yangi bilimlar berish, ko`nikma hosil qilish, kichik guruqlar a'zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag`batlantirish mumkin. O`yinlarni darsning kirish yoki yakunlovchi qismida o`tkazish mumkin. O`yinlarni maqsadiga ko`ra 7 turga ajratish mumkin:

**1. Guruh bo`lib ishlash uchun sog`lom muhit tashkil etishga qaratilgan o`yinlar:**

- guruh a'zolarining o`zaro tanishishlariga yordam beradi;
- guruh bo`lib ishlash ishtiyoqini tug`diradi;
- guruh a'zolarining o`zini erkin his etishlarini ta'minlaydi, charchoqni tarqatadi.

**2. Umumiyl qiziqishlarni aniqlashga yo`naltirilgan o`yinlar:**

- guruh a'zolarining ichki munosabatlarini tezda tiklashga yordam beradi (umumiyl qiziqishlar, orzularni aniqlash orqali);
- guruhga yangi qo`shilgan a'zolarning (o`quvchilarning) yangi sharoitga moslashishlariga yordam beradi.

**3. Guruhning birligini qo`llab-quvvatlovchi o`yinlar:**

- o`zaro munosabat me`yorlarini o`rnatishga yordam beradi;
- guruhning birligini, jipsligini mustahkamlashga yo`naltirilgan bo`ladi.

**4. O`zaro bog`lovchi o`yinlar:**

- bir mavzudan ikkinchi mavzuga yengillik bilan, tabiiy o`tishni ta'minlaydi;
- turli tushunchalarni o`zaro bog`lash uchun xizmat qiladi;
- yangi mavzuni o`rganishni yakunlash bosqichini faollashtiradi.

**5. Rag`batlantiruvchi o`yinlar:**

- guruh bo`lib ishlashga rag`batlantiradi;
- murakkab mavzularni muhokama qilishga yordam beradi;
- dars davomida “nafasni rostlab”, ishni davom ettirishga yordam beradi.

**6. Ijodkorlikni rag`batlantiruvchi o`yinlar:**

- dunyoga boshqacha ko`z bilan qarash, ta'limda innovatsion metodlarni qo`llashga yordam beradi;
- o`yin qatnashchilari o`zlarining yangi qirralarini kashf etadilar, yangilikni qabul qilish ko`nikmasini hosil qiladilar.

**7. Yakunlovchi o`yinlar:**

- katta mavzularni o`rganishni yakunlash, egallangan bilim va ko`nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;
- ta'limning innovatsion metodlarini baholash va unga munosabat bildirishga o`rgatadi.

Ta'lim jarayonida qo`llangan har bir o`yin yakunida o`qituvchining sharhiga vaqt ajratiladi. Bunda u yoki bu o`yin guruh a'zolari tomonidan qanday qabul qilingani, guruhda qanday g`oyalar tug`dirganini sharhlashga e'tibor beriladi.



Boshlang'ich sinf ona tili darslarida “**Tezkor savollar**” didaktik o'yinidan keng foydalanamiz.

**BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSI UCHUN.**

# **Tezkor savollar**

1. Kim? Nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'z turkumining nomi.
2. Ot yasovchi qo'shimchalarga misol ayting.
3. Ona so'zi nechta bo'g'indan iborat?
4. “Men mакtabga bordim “ gapining oxiriga qanday tinish belgi qo'yiladi?
5. Otajon so'zi nechta bo'g'indan iborat?
6. Qanday? Qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladigan so'z turkumini ayting.
7. Oyim menga chiroyli ko'yak olib berdilar. Gapdagi sifatlar so'z turkumiga oid so'zni toping.
8. Uch harfdan iborat so'z turkumi.
9. Gapda kesim vazifasini bajaruvchi so'z turkumi.
10. –kor, -be qo'shimchalari qaysi so'z turkumiga oid so'zlarni yasaydi?
11. Men mustaqil diyorda yashayman. Bu gapda nechta gap qatnashgan.
12. Maktab so'zida nechta undosh harf bor?
13. Bolalarning sevimli jurnali.
14. Tuzish qiyin yechish oson o'yin turi.
15. Lotin alifbosida nechta harf bor?
16. a, k, u, y, b, i nechta unli harf sanadim?
17. Serunum, befoyda, chiroyli so'zlari qaysi so'z turkumiga tegishli?
18. Jarangli undoshlardan 5 tasini sanang.
19. Jarangsiz undoshlardan 4 tasini sanang.
20. Ustoz so'zi qaysi so'z turkumiga kiradi?
21. Men mакtabga bormadim. Fe'l bo'lishlimi yoki bo'lishsiz?
22. Arra, archa so'zlaridan ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zni ayting.
23. Kiyik, qovoq so'zlarini teskarisidan o'qing.
24. Maktab so'zidagi 2-bog'indagi “a” unlisi o'rniga “u” unlisini qo'yib o'qing.
25. Sovuq so'zidagi “s” undoshi o'rniga “t” harfini qo'ying.
26. Qish, tish, ish so'zlaridagi unli harfnini ayting.
27. So'z ichida ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni ayting.
28. Topishmoqning javobini ayting: Ustida bukrisi bor, Oyoqda tuflisi bor.
29. Tushib qolgan harfni ayting: do's.., pas.., Samarqan...
30. Undov gapning oxiriga qaysi belgi qo'yiladi.
31. So'roq gapning oxiriga qaysi belgi qo'yiladi.
32. Darak gapning oxiriga qaysi belgi qo'yiladi.
33. Qaldirg'och so'zi nechta bo'g'indan iborat?
34. Qorbobo yasaladigan fasl.





35. Bahor darakchisi.
36. Yomg'irdan keyin chiqadi.
37. Gap nimalardan tuzilgan?
38. So'z nimalardan tuzilgan?
39. Bo'g'inlar qanday tuzilgan?
40. Bahordan keyin keladigan fasl.
41. Qishning birinchi kuni.
42. Bahorda birinchi uchib keladigan qush.
43. 21-martda qaysi bayram nishonlanadi?
44. Qishin yozin bir xil kiyimda.
45. Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar qanday harf bilan yoziladi?
46. Shaharlarga atab qo'yilgan nomlar qanday harf bilan yoziladi?
47. Ayiq so'ziga "q" harfini qo'yib o'qing.
48. Men bugun besh baho oldim. Bu gapning qaysi turiga mansub.
49. pishirdilar, oyim, topt so'zlaridan gap tuzing.
50. Harflar necha xil bo'ladi?
51. Bir yilda nechta fasl bor.
52. Tutuq belgisi qatnashgan so'zlardan ayting.
53. Dil so'zidagi "d" harfini o'rniga "t" harfini qo'yib o'qing.
54. "Im" qo'shimchasini qo'shib ayting: maqsad. Maktab.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion metodlar orqali tushunchalarni shakllantirish muhim ilmiy, pedagogik muammo hisoblanadi. Buning uchun, yangi o'qitish metodlari, jumladan innovatsion metodlardan foydalanish zarur.

Dars mashg`ulotlarida innovatsion pedagogik faoliyatda innovatsion texnologiya, usul va metodikalardan foydalanish natijasida:

- o'quvchilarning bilim olishga intilishi ortadi;
- fikrlash qobiliyatları rivojlantiriladi;
- erkin fikrlashga o'rganadi;
- darsga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi;
- boshqalar fikrini eshitishga va ularni hurmat qilishga o'rganadi;
- o'z fikrini erkin va mustaqil aytga olishga o'rganadi;
- ko'proq o'z ustida ishlashga o'rgatadi;
- kompyuter bilan ishlash malakasi oshadi;
- internet va u bilan ishlash malakasi ortadi va h.k.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimovning "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta`minlash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to`g`risida" qabul qilgan qarori. PQ-28/05/2012-yil.
2. Sh.M.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI". PF-4947-sonli 07/02/2017-yil.
3. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar - T.: Moliya, 2003.
5. Ishmuhammmmedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: TDPU, 2005.
6. Ishmuhammmmedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - T., 2010
7. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.
8. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma/T.G'afforova. – T: Tafakkur, 2011.
9. R.Ishmuhammedov, M.Yo'ldoshev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (Ta'lim tizimi hodimlari metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma) – T: 2013.
10. Shodiyeva M. Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion yondashuv. - Toshkent: "Yangi avlod" nashriyoti, 2014.

